



QORAQALPOQ TILIDAGI ZONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARDA MILLIY-MADANIY SIMVOLLAR

Madina Kamalova

Qoraqalpog'iston Respublikasi, 37-sonli maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936540>

Hozirgi zamon tilshunosligida va dunyo lisoniy manzarasida dolzarb hisoblangan **antropotsentrik** va **kognitiv** yo'nalishlar doirasida insonlar o'rtasidagi munosabatlarning turli belgilari haqidagi tushunchalar bilan bir qatorda etnosning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish masalasi ham muhim ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Tayanch so'zlar: qoraqalpoq tili, frazeologizm, zoonim komponent, etnos, lingvokulturologiya, milliy madaniyat.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab V.N. Teliya rahbarligidagi frazeologiya maktabi tadqiqotlarida, shuningdek Yu.S. Stepanov, A.D. Arutyunova, V.V. Vorobyov, V. Shaklein, V.A. Maslova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida qo'llanila boshlagan [1, 19].

Agar **kulturologiya (madaniyatshunoslik)** inson ongining tabiat, jamiyat, san'at, ijtimoiy va madaniy borliqning boshqa ko'rinishlari bilan aloqalarini o'rgansa, **tilshunoslik** tilda dunyoning o'ziga xos ruhiy modeli sifatida namoyon bo'ladigan dunyoqarashni tadqiq etadi. Lingvokulturologiyada esa til ham, madaniyat ham tadqiqot obyekti hisoblanib, ular o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Xususan, **milliy til ongiga oid masalalar** lingvistik falsafaning bir yo'nalishi bo'lsa, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi axborot bilan bog'liq jihatlarini o'rganish **psixolingvistika** tadqiqot doirasiga kiradi.

Ijtimoiy kommunikatsiya tizimida insonlar ushbu jamiyat, guruh va ijtimoiy muhitda ramzlardan (simvollardan) foydalanmasdan yashay olmaydi. Insonni hayvondan ajratib turadigan jihatlardan biri ham uning ramzlarga bo'lgan ehtiyojidir. Dunyo ramzlardan iborat bo'lib, ramzlar insoniyatning eng qadimgi va haqiqiy ijod mahsulidir. Ramz – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillarining ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhiyatidagi ifodasidir. Ramz belgisi o'zining dastlabki ma'nosidan tashqari boshqa ma'noni ifodalash uchun shakl sifatida qo'llaniladi. Lingvokulturologiyada ramz masalasi muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy kommunikatsiyada muayyan obyekt, predmet, harakat, matn, hayvon, o'simlik, rang, son va boshqa birliklar ramz sifatida qaraladi.

Bo'ri turkiy xalqlarning totemi bo'lib, u mardlik, bo'ysunmaslik va jasorat timsolidir. Turkiy xalqlar tasavvuriga ko'ra, ayrim turk urug'lari bo'ridan kelib chiqqan, degan e'tiqod mavjud. Shu sababli turkiy xalqlar bo'rini totem sifatida qabul qilganlar. Hozirgi kunda ham bo'rining tishi yoki tirnog'ini



POLAND



POLAND

tumor (amulet) sifatida bo'yinlariga taqib yuradiganlar uchraydi. Shuningdek, qoraqalpoq xalqida bo'ri (qashqir) obrazi kuch, chidamlilik bilan bir qatorda xavf va yirtqichlik ramzi sifatida ham qo'llaniladi. Shu sababli qoraqalpoq frazeologizmlarida bo'ri ishtirok etgan iboralar insonning ruhiy holati, fe'l-atvori va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda keng qo'llanadi. Masalan, **«qasqir kórgen qoyday bolıw»** frazeologizmi «qo'rqib qolmoq, dovdirab qolmoq» ma'nolarini bildiradi. Bu yerda xalq ongidagi bo'rining yirtqichlik timsoli ustunlik qiladi.

Ilon obrazi qoraqalpoq xalqining dunyoqarashida, og'zaki xalq ijodida hamda frazeologiyasida o'ziga xos lingvokulturologik o'ringa ega. U faqat zoologik nom emas, balki xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi ramziy obraz sifatida qo'llaniladi. Qoraqalpoq lingvokulturologiyasida ilon ikki xil semantik ma'noga ega. Bir tomondan, u xavf, yovuzlik, xiyonat, ayyorlik va yashirin tahdidning ramzi hisoblanadi. Shu bois ilon ishtirokidagi frazeologizmlar ko'pincha salbiy emotsional bahoni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, ilon obrazi donolik, ehtiyotkorlik va tabiat bilan uyg'unlik tushunchalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar, ayniqsa, mifologik matnlar va ertaklarda namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq xalq qarashlarida ilon ayrim hollarda yer osti dunyosi, suv, tabiat kuchlari hamda boylik qo'riqchisi sifatida ham tasvirlanadi.

Frazeologik birliklarda ilon insonning fe'l-atvori, ruhiy holati va xarakter xususiyatlarini tasvirlash uchun qo'llaniladi. Ilon komponentli frazeologizmlar orqali xavflilik, sabr-toqat va epchillik kabi belgilar ifodalanadi. Bunday qo'llanish qoraqalpoq xalqining ko'p asrlik hayotiy tajribasi va tabiat bilan uzviy aloqasining tildagi ifodasidir.

Masalan, **«Jılan jutıp otırdı»** frazeologizmi lug'atlarda «xavotirlandi, tashvishlandi» ma'nolarida izohlanadi [2.56]. Bunda insonning ruhiy holatini ifodalash uchun ilon zoonimi tanlangan, chunki qoraqalpoq xalq ongida ilon salbiy ramziy ma'noga ega bo'lib, ko'pincha insonga zarar yetkazuvchi mavjudot sifatida tasavvur qilinadi. **«Jılannıń mayın jalağan»** frazeologizmi esa «o'ta ayyor, makkor, hiylakor» ma'nolarida qo'llanadi [2.56].

Lingvokulturologik nuqtai nazardan qaraganda, ilon obrazi qoraqalpoq tilining frazeologik fondida milliy madaniy kodning muhim tarkibiy qismidir. U orqali xalqning axloqiy me'yorlari, xavf haqidagi tasavvurlari, insonlar o'rtasidagi munosabatlarga bergan bahosi va dunyoni idrok etish xususiyatlari namoyon bo'ladi. Shu sababli ilon komponentli frazeologizmlarni o'rganish qoraqalpoq



POLAND



POLAND

tili va madaniyatining o'zaro bog'liqligini ochib berishda muhim manba hisoblanadi.

Chorva mollarini ajdodlarimiz qadim zamonlardan buyon inson hayotining asosiy tirikchilik manbalaridan biri sifatida qadrlaganlar. Ular chorva mollarini inson ehtiyojlarini qondiruvchi, oziq-ovqat va boshqa zarur vositalarni ta'minlovchi asosiy boylik deb bilganlar. Masalan, qoraqalpoq frazeologik lug'atlarida **«túyeden postın taslağanday»** – «ersi, noo'rin, qo'pol»; **«túyeniń ústinde iyt qaptı»** – «epsiz, bo'shang, no'noq»; **«túyeni túgi menen jutadı»** – «ochko'z, tamagir, poraxo'r»; **«túyesi kópirden ótti»**, **«túyesi tawğa shıqtı»** – «ishi yurishdi, omadi keldi, muvaffaqiyatga erishdi» ma'nolarini bildiradi [106].

Lingvokulturologik nuqtai nazardan, tuya oddiy chorva hayvoni emas, balki xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, dunyoqarashi va milliy ruhiyatini ifodalovchi madaniy konsept hisoblanadi. Tuya qoraqalpoq xalqining milliy ongida va madaniyatida alohida o'rin egallagan to'rt tuyoqli chorva hayvonlaridan biridir. U sabr-toqat, baraka va boylik ramzi sifatida qadrlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq tilidagi zoonimlar insonning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi hamda uning xatti-harakatlarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi. Ular xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Abdinazimov Sh., Tolibayev X.. Lingvokulturologiya. (Oquw qollanba). Nókis. «Qaraqalpaqstan» baspası. 2020-jıl. 140 bet..
2. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилинің фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкис: «Bilim». 2025. – Б.56.